

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI YO'NALISHI

III-KURS, 310-GURUH TALABASI SULTONOVA

GULSHAN SHUKRULLO QIZIning

"TASVIVRIY SAN'AT TARIXI" FANIDAN

YOZGAN

KURS ISHI

Mavzu: Temuriylar davri me'morchiligi.

Bajardi:

Sultonova Gulshan

Qabul qildi:

Xudoynazarova Sh.

QARSHI - 2013

Mavzu: Temuriylar davri me'morchiligi.

Reja:

Kirish

Asosiy qism.

1. Temuriylar sulolasi davrida madaniyat va san'at
2. Shahrisabzning me'moriy obidalari.
3. Samarqand me'moriy obidalari.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

*Bizning valoyatimiz va karomatimizga
shak keltirsang magar, tiklamish
imoratimizga tashlagil nazar».*

Amir Temur

Bashariyat tarixiga katta ta'sir o'tkaza olgan dunyo buyuklarining benazir silsilasiga, shubxasizki, tirikligidayoq Sohibqiron deya ulug'langan, Amir Temur ibn Tarag'ay (1336-1405 yillar)dek jahongirni dunyo tanoladi. Amir Temur, ona Vatanini chet el bosqinchilardan ozod qilishdek muqaddas ishga ulkan hissa qo'shgan, Markaziy Osip xalqlarining iqqisodiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotini yuksak pog'onaga ko'targan umumjahon tarixining buyuk siymosi, yetuk davlat arbobi, yengilmas lashkarboshi, ilmu fan va madaniyatning sahovatpesha qomiysi sanaladi.

O'zbekistan Respublikasi davlat mustaqilligining e'lon qilinishi sharofatidan chinakam erkinlikka erishish tufayli Amir Temur tarixan unutilish changallaridan o'z xalqi qalbiga, ona Vatani bag'riga qaytdi.

O'zbekistan Respublikasi Prezidenti` Islom Karimov Tashkenti` azimda Sohibqiron Amir Temurga ulug'vor haykalining ochilishi tantanali marosimida (1993 yilning 31 avgust) buyuk ajdodimiz haqidagi haqiqatni faxr-iftixor tuyg'usi ila shunday ifodalagan edi: «Uzoq yillar mobaynida mustamlaka iskanjasida kun kechirgan xalqimiz o'z vatandoshini qadrlash, uning tarixiy mavqeini munosib o'rniga qo'yish imkonidan mahrum edi. Amir Temur nomi tariximiz sa'hifalaridan qora buyoq bilan o'chirildi, unutilishga maxkum etildi. Maqsad, xalqimiz yuragidan milliy ong, milliy g'urur tuyg'usini yo'qotish, uni qaramlikka, tobelikka kundirish edi. Lenin o'zbek xalqi o'z ajdodlarini, o'z bahodirlarini unutmadi, hamisha yuragida, qalb turida saqladi».

Amir Temur o'z Vatanini haqoratomuz chet el istibdodidan ozod qildi, talon- taroj etilgan Turkistonni - Movarounnahrni birlashtirdi, mamlakatni tinch-

osoyishta ayladi, uning madaniy uyg'onishi na ravnaqida yangi bir davrni oyoqqa qalqtirdi. Sohibqironning harbiy dahosi afkor dunyoni larzaga soldi. Buyuk Ipak Yo'lining ulkan kengliklarida buyuk saltanatni barpo etdi. Uning zamonida madaniyat, ilmu fan, me'morchilik, tasviriy san'at, musiqa, she'riyat beqiyos rivoj topdi.

Temur davri tarixini har tomonlama tadqiq etgan akademik A. Yu. Yakubovskiy «ulkan qurilish ishlari»ning ahamiyatini ta'kidlab o'tar ekan, ularning nafaqat me'moriy ijodiy yuksalishiga olib kelganini, qolaversa «mashhur temuriy me'morchilik» ning shon-shavkatini va ta'sirini yiroq-yiroqlarga yetkazgan Markaziy Osiyo me'morchiligidagi sifat jihatdan yangi yo'nalishning poydevori bo'lib xizmat qilganligini talqin etadi.

Usha zamonlardagi voqealarning ishtirokchisi - muarrix Ibn Arabshox davr ko'tarinkiligi junbushining me'morchilikda ko'lami aks etishini Samarqanddagi Amir Temur jome' masjidining baland minoralaridan yangragan da'vatkorona: «Obidalarimiz (avlodlarga) bizning kimligimizdan dalolat beradi» xitobi bilan bog'lab ta'riflaydi.

1. Temuriylar sulolasi davrida madaniyat va san'at

Temuriylar sulolasi davrida O'rta Sharqning o'rta asr madaniyati va san'ati gullagan davrni boshidan kechirgan. Bu davrda ayniqsa me'morchilik ravnaq topdi.

Me'morlik san'ati qurilish ishlari bilan bog'liq bo'lgan san'atning bir turidir. U ham san'atning boshqa turlari kabi katta ahamiyat kasb etadi. Me'morlar va quruvchilar mehnati natijasida turli-tuman binolar, shahar va qishloqlar yaratiladi. Me'morchilik mahsuloti jamiyat moddiy madaniyatining bir qismi hisoblanadi.

Me'morlik asarlarida amaliy xizmat, go'zallik, moddiy-texnikaviy asos, nafosatning o'zaro qo'shiluvi muhim xususiyat-lardandir. Me'morlik asarlari me'morlar, muhandis-binokor va ishchilar hamkorligida bunyod etiladi. Ularni qurishda binokor-quruvchilar bilan me'morlar bir maqsadda ish olib boradilar, lekin ular bu maqsadni turli yo'llar bilan hal qiladilar. Binokor-muhandis imorat

qurganda uning faqat foydali amaliy vazifalarini hal qiladi, ko'proq binoning vazifasi, materiallarning xususiyati, chidamliligi kabilarni nazarda tutib ish olib boradi. Tejamkorlikka, binoning yashash uchun qulay bo'lishiga harakat qiladi. Me'morlar esa bu vazifalarni badiiy vositalar bilan yechadilar. Ular binoning vazifasi, qulayligi, foydasi, tejamkorligidan tashqari uning go'zal bo'lishi, odamlarda ma'lum his-tuyg'ularni, kayfiyatni uyg'otishi haqida fikr yuritadilar. Me'morlik haqida gap ketganda, me'mor uning san'atning bir turi ekanligi, uning o'ziga xos xususiyatlari, binolarning turlari odamzod paydo bo'lgan davrdan boshlab mavjudligi haqida fikr yuritiladi.

O'zbekiston me'morchiligining tarixiy ildizlari uzoq asrlar qa'ridan suv ichadi. U Markaziy Osiyoning kokillarini ikki daryo yuvgan Movarounnaxrda, kindigi Zarafshon daryosining vodiysi bo'lmish qadimiy Sug'd – Sug'diyona zaminidagi qadim davriy tarakkiyotlar (tsivilizatsiyalar) zaminida yaratilgan va ravnaq topgandi. Turli davrlarda bu zaminda ko'plab shaharlar bunyod etilgan.

Eng qadimiylari - Samarqand, Shaxrisabz va Buxoro - z ulug'vor me'moriy yodgorliklari qyofasida o'tmish bilan mavrusiy chambarchasligini saqlab qolgan.

Bizning eramizgacha bo'lgan 1 ming yillikda Sug'diyona zaminida shaharlar vujudga kela boshlaganligi arxeologiya topilmalarida har tomonlama tasdiqlanadi. Chunonchi, Maroqand bizning eramizgacha bo'lgan asrda mustahkam istehkom inshootlari bilan o'ralgan ancha katta shahar edi.

Eramizdan oldingi III va milodiy III asrlardagi Markaziy Osiyo madaniyatini, odatda mahalliy antik davr madaniyatiga oid deb hisoblaydilar.

Ijtimoiy buhronlar, davlatlarning parchalanib ketishi, yangi jhukmdor sulolalarning paydo bo'lishi shaxarsozlik va me'morchilik taraqqiyotida iz qoldirdi. Zarafshon vodiysining antik, ilk feodalizm (amlokdorlik) davri me'morchiligining qiyofasini alohida kishloq qurgonlari kam, yagona tarkibida turli-tuman me'moriy inshootlar bulgan mustaxtsam kal'apar kam belgilab beradi. Afrosiirb, Varaxsha va Panjikent kadimiy shajarchalari jududidagi arxeologik topilmalar kadimiy Sugd me'morchiligining xususiyatlarini aniklash imkonini berdi.

Arablarning Markaziy Osiyoni bosib olishi (VII-VIII asrlarda) majalliy

an'analar zamirida yangi yullar, badiiy-uslubiy uziga xosliklar paydo bo'lishiga imkoniyat tugdirishi keyinchalik yangicha uslub shakllanishiga asos yaratdi. Bu tarixiy davrda Samarqand, Varaxsha va Buxoro singari tarixiy-madaniy markazlar yaqqol ajralib turadi.

Islom madaniyatining ta'siri masjid, madrasa, maqbara, minora, xonako, namozgox kabi imoratlar qurilishida gurkirab ko'zga tashlanadi.

Markaziy Osiyoning IX-XII asrlardagi siyosiy tarixi qudratli hukmdor sulolalarining tez-tez almashib turishi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Somoniylar va Koraxoniylar hukmronligi davrlarida Buxoro va Samarqand poytaxt va yirik shaharlar sifatida ravnaq topdilar, ilmiy fan va madaniyat markaziga aylandilar. Maorif o'chog'iga aylangan ilk diniy akademiyalar - madrasalarning kurilishi ayniqsa diqqatga sazovordir.


Markaziy Osiyo me'morchiligi va san'atidagi ilgari lama rivojlanish mug'illarning ko'plab gullab-yashnagan shaharlarni, shu jumladan Samarqand, Buxoro va Urganchni xarobazorga aylantirgan buzg'unchi istilosi oqibatida uzilib qoldi.

XIV asrning o'rtalarida Markaziy Osiyo ko'plab tarqoq feodal (amlodkor) davlatlar bor edi. Uzaro nizolar mamlakatning iqtisodiy jihatdan kashshoqlashuvini orttirdi. Ayni vaqtda butun Movarounnahrni o'z saltanatiga buysundurajak Amir Temurning shaxsi siyosat maydoniga kiradi. Sohibkironning muzaffarona yurishlari chog'ida mo'l-ko'l o'lja-ganimatlar qo'lga kiritildi, ko'plab ustalar va jhunarmandlar Turon zaminiga ko'chirilib keltirildi.

XIV asrning ikkinchi yarmida mamlakatda yangi iqtisodiy ko'tarilish kuzatiladi, birin-ketin shaharlar jonlana boradi. Temur hukmronligi davrida Samarqand ulkan saltanatning poytaxtiga aylandi, me'morchilik va san'at yuksak taraqqiyotga erishdi. XIV asr oxirida Markaziy Osiyodan tashqari butun Yaqin va O'rta Sharqni, Hindiston va Oltin O'rda sarhadlarini qamragan bepoyon saltanat barpo etildi.

Yangi dorussaltanat - Samarqand Amir Temurning irodasiga ko'ra yer yuzidagi eng katta shaharga aylanishi kerak edi. Jahongir buning uchun Samarqand

tevaragidagi qishloklarni dunyoning mashhur va yirik shaharlari nomi bilan atadi, alalxusus Samarqand atrofida Misr (Qohira), Dimishq (Damashq), Bag'dod, Sultoniya va Sheroz degan qishloqlar paydo bo'ldi.



Naqshinkor to'sinlar.

Moddiy boyliklarning azim oqimi va Yangi poytaxtga mohir ustalarning ko'chirib keltirilishi Samarqandning misli ko'rilmagan madaniy ravnaqiga zamin

xozirladi. Amir Temurning quruvchilik-bunyodkorlik faoliyati Samarqandni ildam rivojlantirishga, uni «Yer yuzining sayqali»ga aylantirishga qaratilgan edi. Mislsiz qurilish ko'лами tarixiy solnomalarda qayd va tarannum etilgan. Bunyodkorlik faoliyatining ijtimoiy mohiyati shundaki, tiklangan imoratlarning maxobati oddiy kishilarning aqlini lol qoldirar, saltanat tayanchlarining mustaxkamligi va ulug'vorligini tasdiqlab turar edi.

Samarqand O'rta Sharq va Markaziy Osiyoning eng mohir me'morlari yig'ilgan markazga aylandi. Bu shaharda o'ziga xos va yuksak san'at ry~ yangi 9tda toblandi. Mahalliy va chetdan kelgan me'morlar va quruvchi-ustalarning jamoaviy mehnati Movarounnaxr me'morchiligining eng sara an'analari negizida me'morchilikda badiiy ijodiyatning go'zal namunalarini dunyoga keltirgan sifat jihatdan yangi, murakkab yo'nalishlarni yaratdi.

Qurilish ixtisoslariga muvofik ravishda ustalar o'rtasida mexnat taqsimoti amal qilardi. Kasb malaka vnvonlari anik-tinik farqlanishiga ega bo'lgan: Fitsinkor - devor, peshtok va rymbazlar g'ishtini teruvchi usta; gilkor - suvoqchi; ganchkor, naqqosh, sangtarosh - me'moriy bezak povpardozlov ustalari ishlagan. Ular orasida barcha qurilish ixtisoslari malakasiga ega, loyixalashtirishni va xandasaviy tuzilishni mukammal bilgan me'mor, muxandislar kam bo'lgan, albarga. Ko'p sonli ustalar va qurilish ishchilari me'morboshi rahbarligida ishlaganlar. Yirik inshootlarda ishlar obdon pishitilgan me'moriy musavadda- qoralamalar, tarklar va andozalar asosida yoritilgan. Xajmiy-fazoviy tuzilishni tekshirish uchun bino maket-nusxasi kam yasalar edi.

Samarqandning yiroqdan g'ira-shira ko'zga tashlanadigan manzarasida qasrbop inshootlarning ustunligi yaqqol balqib turar edi. Shaharning yashillikka burkangan tevaragida birin-sirin muntazam bog'lar gurkirab ko'kka bo'y cho'za boshladi. Bog' yaratish san'ati yangi ravnaqqa erishdi, kushk me'morchiligining ajoyib namunalari bunyod etildi.

Qurilish texnikasi va texnologiyasi sohalarida kam katga siljishlar sodir bo'ldi. Ishlatiladigan qurilish jihozparining doirasi o'zgardi. Guvala, xom gisht, paxsa, yog'och asosiy devorbop materiallar sanalgan ommaviy qurilishlarda paxsa-

sinchli tuzilmalar o'z xususiyatlarini saqlab qoldi. Tomlar yog'och to'sinlar usgida yassi qilib bostirilgan. Sarik sog' tuprok qurilishning o'zgarmas qorishmasi sifatida xizmatini davom etgiran edi.

Yirik imoratlarda qurilish materiallarining turli-tumanligi ko'zga tashlanadi. Tosh keng jullangan. Aksariyat inshootlarning poydevorlari karturli toshlardan terilgan. Tosh ustunlar, izoralar, tosh koplangan belbog'lar va uloqlar ham kam emas. Ayrim me'moriy unsurlar - ustunlarning serqirra negizlari, turli ko'rinishdagi panjaralar, devorlarning naqshinkor qoplamasida ishlatilgan nafis bezakli parchin-uloklar marmardan taroshlangan edi. Toshtaxtasimon sirlangan pishgan g'isht asosiy qurilish jixozligicha qoldi. Asosiy qurilish qorishmasi sifatida: mahalliy ganjning har xil turlari g'ishtin inshootlar tuzilmalarida, binobarin ustaning tuzilma tanlashiga qarab ganj sof holda (tez qotadi) yoxud sof tuproq aralashtirilib ishlatilgan. Yer ostida gisht terilganda esa kul aralashtirilgan ohak-kirdan foydalanilgan. Bezaklash-pardozlash ishlarida lojuvardli mayda sirkor gishtlar, sirlangan sopol, gul bezakli suvoqlar, ganch va kundal uymakorligi, yopishtiriladigan toshkog'oz ziynatlaridan keng foydalaniladi.

Markaziy Osiyoda koshin asosida yig'ma kadama naqshlar XIV asrning 70-yillarida kuhna Urganchda qurilgan To'rabeka Xonim xonakosida birinchi marta qo'llangani qayd etilgan. Mohirona uyilgan naqshlar, shubhasiz, uzoq muddatlarda jamlangan tajribalar natijasini uzida mujassamlashtiradi, binobarin Markaziy Osiyo sarhadlarida bunday uslub qo'llangan yanada qadimiyrok namunalar xozircha topilganicha yo'q.

XIV-XV asrlarda Samarqand tevaragida shahardan tashqaridagi qasr imoratli bog'lar xalqasi vujudga keldi. Tarixiy asarlarda ancha mashhur bog'lar tilga olinadi. Bog'larning jozibali nomlari diqqatni o'ziga tortadi: Bog'i Nakgi Jahon, Bog'i Bexisht, Bog'i Dilkush, Bog'I chinor, Bog'i Jahonnamo va hokazolar.

2. Shahrisabz me'moriy obidalari.

Shahrisabz yashil shahar degan ma'noni anglatadi. Buyuk Sohibqiron Amir Temurning Islomiy shahar markazlaridan biri bo'lganligi tufayli Kubbatul ilm va l-

adab», ya'ni «Ilm va adab jamiangan ma'vo» degan faxrli kunyaga ega kindik qoni tomgan Vatani - qadimiy Kesh (Kash) shahri shunday atalar edi. 1404 yilning avgustida shaharga etib kelgan Ispaniya elchilari uni katta shahar» deya ta'riflaganlar. Klavixo yozadi: Kesh yonlama engan sug'orish ariqlari kesib o'tadigan va daraxtlar bilan qoplangan tekislikda joylashgan. (Shaharni) qishloqlar va bog'lar qurshab turadi, atrofda esa ko'plab gavjum qishloqlar, ariqlar, utloqlar ko'zga tashlanib turgan tekislik yastanib yotardi va bu zamin o'z faslida nihoyatda go'zal (bo'lishi kerakdek tuyulardi). Sug'orma yerlarda bug'doy, uzum, ruza, qovun va ulkan mevali daraxtlar o'sadi. Shahar tuproq devor bilan o'ralgan darvozalar oldida esa osma ko'priklar bor edi)) (Klavixo, 102 saxifa).

Shaharning Ispaniya elchilari diqqat bilank kuzatgan qal'a devorlari Amir Temurning buyrug'iga binoan va uning rahbarligida tiklangan edi. Ularning uzunligi 5 km bo'lib, tarhiy jihatdan 770X1730 m tug'ri to'rt burchakdan tarkib topgan, har bir tarafida kundalang uzun qungira, ravoqlarshimak va dandanalar bilan birlashtirilgan baquvvat minoraga - burjlarga ega darvozalar bor edi.

Ispaniyalik elchilar Amir Temurning bunyodkorlik faoliyati bilan bog'lik barcha imoratlarni diqqat bilan ko'zdan kechirganlar. Usha vaqtlar imoratlari bizgacha nixoyatda vayrona bo'lgan va o'zgargan axvolda yetib kelganligi sababli guvoh Klavixoning ma'lumotlari ilm va amaliyot uchun alohida qimmatga egadir. Bu yerda katta uylar va masjidlar ko'p edi.

Bundan tashqari bu yerda qurilgan masjidda Temurbekning Yangir (Jahongir) ismli tung'ich ugli ham dafn etilgan. Mazkur masjid va dahma nihoyatda xashamatli va oltin, lojuvard va koshin bilan bezatilgan, uning oldida esa daraxtlari va xovuzlari bo'lgan yerlar yastangan. Hukmdorning buyrug'iga binoan bu masjidga har kuni yigirmata pishirilgan qushni (Temurbekning) usha yerda dafn etilgan otasi va ug'lining ruhini shod etish maqsadida jo'natardilar. (Klavixo, 102 sajifa).

Temur otasining ruhoiny murshidi - piri Shayx Shamsuddin Kulol tirikligida barlos urug'ining katta hjurmat-ehtiromiga musharraf bo'lgan. Aynan u Amir Tarag'ay ug'lining buyuk kelajagini karomat qilgan va go'dakka Temur

degan ism qo'ygan edi. Bolalik kezlaridanoq Temur unga maslahat yuzasidan murojaat etar, va, o'zining e'tirof etishicha, ulug'vor va shavkatli saltanat eshiklarini ochgan taxtga chiqish chog'ida o'z homiysining duoyu tabrigini olgan edi.


Shayx Shamsuddin Kulol Amir Temur Movarounnahr jukmdori etib e'lon qilingan yilda (1370 yil) vafot etgan va katga izzat-ikrom bilan Keshning janubiy sarxadida tuproqqa qo'yilgan edi. Avliyo qabri usgida tiklanran gumbazli maqbara bilan sharofatli zotlar qabristoniga asos solindi. Amir Temurning farmoyishiga kura 1374 yilda bu erda tiklangan yangi maqbaraga Amir Tarag'ayning jasi ham qayta dafn etiladi. Klavixo bu binoni «katta kabriston» deb ataydi. Masjidli me'moriy majmua zamonlar o'tishi bilan DORUT TILOVAT, ya'ni marhumlar ruhiga duo o'qiladigan uy nomi bilan mahixur bo'ldi.

Shayx Shamsuddin Kulol va Amir Tarag'ay maqbaralari Ulug'bek zamonida 1437-1438 yillarda jiddiy ta'mirlangan. Amir Tarag'ayning Gumbazi Saidon nomi bilan mashhur maqbarasi ichkarisndagi bitiklar bu yer Ulug'bek ajdodlari xilxonasi ekanligini eslatib turadi.


Dorut Tilovat majmuining sharqida, shajarning Shimoliy darvozasi yonida boshqa bir me'moriy majmua - DORUS SAODAT, ya'ni «Payg'ambar avloddari (sayyidlar) uyi» joylashgan. Sharafuddin Ali Yazdiy ta'kidlaganidek, Kesh - Shahrisabz shahri Payg'ambar hadislarini to'plagan va sharhlagan ko'p muxaddislarning vataniga aylangan. Bularning orasida elda Xazrati Imom sifatida mashxur bulgan Abu Muxammad Abda ibn Nasr al-Keshiy (865 yilda vafot etgan) Keshning janubi-sharqiy sarxadida dafn etilgan, bu yerda shu nomdagi ulug'vor me'moriy majmua qad rostlaydi. Mazkur aziz imomning ismi-sharifi Buxoro xukmdori amir Muzaffarxon buyrug'iga binoan 1868 yilda o'rnatilgan naqshinkor eshikda tilga olinadi.

Majmua tarkibiga xonako, ikkita maqbara va bir necha xizmat xonalari - xujralar kiradi. Inshootning old tomoni o'rtasida chuqur ravokli baland peshtoqdan iborat. Avliyo maqbarasining shimoliy tarafida kuloliy gumbaz, janub tarafida aynan shunday xona - xonakoh (hozir saqlanmagan) joylashgan edi. Janubiy

gumbaz butunlay buzilgan. Markaziy zal to'rida guyo Temurning o'ziga muljallangan katta maqbaraning binosi qurilgan edi. Muxtasham maqbaradan endilikda o'rtasida tosh tobut joylashgan xochsimon tosh dahmagina saqlanib qolgan, xolos.




Oqsaroy. (1380 yil.) Shahrisabz



Оқсарой. Рукн лавҳаси

Аксарай. Фрагмент пилона

Aksaray. A pyllon (fragment)



Рукн лавҳаси

Фрагмент пилона

A pyllon (fragment)

Оқсарой ko'rinishlari

Amir Temur jonajon shaxrining gullab-yashnashiga katga e'tibor beradi. Xorazm ustiga navbatdagi 1379 yil yurishidan so'ng odatdagidek barcha binokor mutaxassis va xunarmandlarni Shahrisabzga jo'nargiradi. Shahar gurkirab kengaya boshladi.

Oqsaroy qurilishi xiyla uzok davom etgan. U 1380 yillarda qurilgan bo'lib, Temuriylar davri me'morchiligining eng go'zal namunalaridan biridir.

Kengligi 22 metrli peshtok ravoqi ikki tashqi minoradek, burjlar bilan ayvon tomondan mustaxkamlangan. Peshtoqning tugallangan tepa qismi saqlanib qolmagan. Chamasi, gumbazinng uch burchak tokchalari ustida kung'ira bilan tugallangan kubballi galereya bo'lgan. Aylana burjlarning yuqori qismida gumbazchali an'anaviy kafasalarga ega bo'lgan. Peshtokning umumiy balandligi 50 metrdan ziyod edi.

Oksaroydagi ko'prangli koshinli qoplama dikqqatga sazovordir. Pardozlangan qizg'ish-jigarrang gilinng xaroratli sarg'ish-jigarrang fonida loju-wardlangan mayda gitsitchalarinng qat'iy xandasaviy to'qimasi bo'rtib turadi. Suvratning asosiy chiziklari kugs rant bilan ajratilgan. Tekisliklar moviy rang bilan to'ldirilgan. Peshtoqning pastki qismida, ayinqla tokinng yassi tekisliklarida kizg'ish-jigarrang fon asta-sekin yuqolib boradi. Bunda ranglarinng quyushuviga kuk nafarmon tus ustunliri bo'lgan uyma naqshlar va qisman kadama bezakdan foydalanish evaziga erishilgan. Naqshlar ko'lami va suvratlar, rangli koshinlarinng birikuvi, bir butunlikda inshootga katta xashamdorlik va tantanavorlik baxshida etadi.

Oksaroy uzining kulami va badiiy sifat bilan XN asr oxirlari - XV asr boshlarida ko'plab imoratlar orasida birinchi o'rinlardan birini egallaydi. Badiiy shakllarga oid teran bilimlarini namoyish etgan xalk ustalarinng ijodiy izlainslari bu inshootda o'z tajassumini topdi. Boshqa tomondan esa Temur mahobatli inshoot qurish bilan o'z ta'sirini kuchaytirishga intilar edi.

Oqsaroy peshtokining tepasida yirik-yirik arabiy xarflar bilan yozilgan:

Bizni valoyatimiz va karomatimizga shak keltirsang ma gar, tiklamish imoratimizga tashlagil nazar! arabcha bitigida jahongirning "ijtimoiy buyurtmasi" ainq-ravshan jaranglab turardi.

3. Samarqandning me'moriy obidalari

XIV asr oxiri va XV asr boshlarida, ayniqsa, Samarqandda katta qurilish ishlari olib borilgan, hashamatli va go'zal binolar vujudga kelgan.

Shahar sha'niga to'qilgan ko'plab jozibali ta'rif-tashbehlar silsilasida ko'tarinki ruxdagi «yer yuzining sayqali» ta'rifi deyarli Samarqandning egizagiga aylanib ketgan. Nomining uzi esa asrlarning teran qa'ridan keladi. Shahar qadimiy Yunonistonda Marokanda nomi bilan ma'lum bo'lgan. O'rta asrlar tarixi uni Samarqand tarzida tilga oladi. Abu Rayxon Beruniy va Maxmud Koshg'ariy (XI asr), Zahiridtsin Muhammad Bobur (XV-XVI asrlar) shaxar nomining kelib chikishini «Semizkent» birikmasiga, chunonchi «semiz» - bir necha poydevor katorlarigina saqlanib qolgan, xolos, boy, xashamatli va «kent» - shahar so'zlariga taqaganlar. «Samar» so'zi «yuksak» ma'nosida qo'llangan degan faraz ham bor.

Arablar hukmronligi zamonida Sug'dni «Muzaffar Xalifaning bog'i» deb ataganlar. Garchand shunday bo'lsada, Samarqand o'z shon-shuhratining oliy cho'qqisiga, harxolda, Amir Temur uni o'z davlatining poytaxtiga aylantirgan davrda erishadi. XIII asr boshlaridagi mug'illar istilosi oqibatida yer bilan yakson etilgan qadimiy Samarqand-hozirgi Afrosiyob kuxna shahri bungacha xarobazorga aylanib turardi. - Afrosiyobning janubiy etaklarida yangi shahar kad rostladi va XIV asrning oxirlariga kelib, Temur zamonasida g'azal, gullab-yashnagan va gavjum shaharga aylandi.

Samarqand davlat poytaxtiga aylangan 1370 yildan so'ng katta shaharsozlik ytsiari amalga oshirildi. Shaxarning g'arbiy sarxadida, bo'loklari kup chukur jarlik tepasi baland xushmanzara joylar kiftida Arki Oliy deb atalgan mustahkam qal'a qad ko'tardi. Muxdasham Ko'kyo'aroy bog' san'atining jozibali nom olgan namunasi bo'lmish Bustonsaroy bog'inng miyonasida bunyod etiladi. Poytaxt shaharda qiska fursat mamlakatni boshqargan Temuriylardan biri,

Hindistonda barpo etgan saltanat asoschisi, O'zbek adabiyotining mumtoz vakili Zaxiriddin Muhammad Bobur taxminan yuzyildan so'ng o'z esdaliklarida Samarkandni nixoyatda obod shahar sifatida ta'riflagan.

Bobur keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, shahar qal'a devorlarining uzunligi 16000 kadam, ya'ni taxminan 7,5 km bo'lgan. Devor shaharning shimoliy tarafida mustajkam istexkomga ega edi. Shaharga kiraverishdagi Oxanin darvozasi murakkab yo'lga - tuzoqqa egaligi poytaxtning mudofaa imkoniyatlarini oshirgan. Bu erda devor xiyla qalin bo'lib, uning dandalari ustidan otda bemalol utish mumkin bo'lgan.

Amir Temur zamonida Samarqandda yuz ko'rsatgan o'zgarishlarning shoxidi Ibn Arabshox jaxongirning shaharsozlik bobidagi niyatlariga oid diqqatga sazovor bir misolni keltiradi: Sohibqiron dorussaltana Samarqandning gardaniga Sharqning ma'lum va mashhur shaharlarining nomlari ko'yilgan obod qishloq va kasabalardan munchok taqqan edi.

Me'moriy xususiyatlari yaqqol namoyon bo'lgan yangi tuzilma an'anaviy savdo rastasining eng yaxshi namunalaridan biri edi. Rasta me'morchiligi qo'llanilgan shakllar va uslublar, odatdagi yupqa bostirma dukonlardan tortib yiriklarigacha, timlarning gumbazli-tokli inshootlari turlarining keng qo'llanishi bilan e'tiborga molikdir. Shaharda xushmanzara kasb etuvchi alohida dukonlar, ustaxonalar va mehmonhonalar qurilgan ko'plab bozorlar bulgan.

Samarqand Registonida Toki Telpakfurushon -telpak sotuvchilar - degan markazlashma bino aloxida kurk tukib turardi. Bunday tok.par me'morchiligida binolaridan aloxida xonalardukonlar chikib turgan markaziy gumbazli katgaxona uziga xoslikka ega. Tok kuchaning yqnalishiga muvofik ravishda chetdan kelgan musofirlar uchun xovli majmualariga, bryngidek turli tovarlarni saqlash va chorva mollari qamalishi uchun xonalarga ega bo'lishi mumkin edi.

KO'KSAROY. Shaharning tepalik yeridagi kunchiqar tomonidan chuqur Xandak bilan o'ralgan Arki Oliy (Kasr) kiyofasi o'zgardi. Temur zamonida bu yerda mustaqil mudofaa inshooti – darvozasi bo'lgan qal'a devorlari va qarorgoxni suv bilan ta'minlovchi osma quvurlar qurildi. Yam-yashil daraxtlar va bir tekis

imoratlar qurshovida o'ziga xos, chamasi, yagona turt qavatli va miqyosi jihatdan ancha yirik inshoot yanada maxobatli ko'rinar edi.

MASJIDI JOME' - Samarqand shahrining hozirgi paytda Bibixonim masjitsi nomi bilan mashhur va ma'lum jome' masjidining qurilishi 1399 yil 11 mayda Amir Temur Xindiston yurishidan qaytgan zaxotiyoq boshlangan edi. Ayni uning qurilishiga Ozarbayjon, Xuroson, Xindiston va boshqa mamlakatlardan tainikli binokor-ustalar olib kelingan edi.

Amir Temur maqbarasi XV asr boshlarida qurilgan. Uni qurishga usta Muhammad ibn Mahmud Isfaxoniy rahbarlik qilgan. Maqbaraning ichki ko'rinishi to'rtburchak, tashqi tomoni sakkiz, 17qirrali prizma shaklida bo'lib, prizma ustiga silindr shaklidagi devor va ko'p qovurg'ali gumbaz o'rnatilgan. Maqbara devorlari zangori, havorang, oq sirli koshinlar, naqshlar bilan bezatilgan. Gumbaz osti qismining diametri 15, balandligi 12,5 metrni tashkil etadi. Maqbara ichiga to'rt tomondan rangdor oynali va panjarali darchadan yorug'lik tushib turadi. Maqbara ichiga Ulug'bek tomonidan qurdirilgan usti berk yo'lak orqali kiriladi. Maqbarada Amir Temur, uning ikki nabirasi Muhammad Sulton va Ulug'bek, ikki o'g'li Shohruh va Mironshohning sag'analari bor. Maqbara o'zining aniqligi, shaklining oddiyligi, badiiy bezaklar-ga boyligi, nafisligi va ulug'vorligi bilan dunyodagi eng mashhur me'moriy obidalari qatoridan o'rin olgan.

Milliy me'morlik tarixida shuhrat qozongan me'morlardan Ustod Baqo (Buxorodagi «Minorayi Kalon»), Muhammad Yusuf (Shahrisabzdagi «Oq saroy»), Usto Abdujabbor (Samarqanddagi «Sherdor»), Shamsiddin va Zayniddin Buxoriylar (Samarqanddagi «Shohizinda» ansambli), Ota Muhammad, Usta Shirin Murodov (Buxorodagi «Sitorai Mohi Xosa»)larni eslab o'tish joizdir. Shakarning Ojanin darvozasi yonidagi ikki ruparama-rqpara bino - masjid va madrasa «kugts imorat» xilidagi karga ansamblni tashkil etar EDI.

Temur masjid qurilishi buyicha jamma ishlarni uz muvoshiri - yordamchisi va devonlardan birining sadri - boshligi Muxammad Jaldga (Ibn Arabshojga ko'ra) va Xoja Maxmud Dovudga (Sharafuddin Ali Yazdiyga ko'ra) topshiradi.

Old Osiyoga etti yillik yuryushdan qaytar ekan, muzaffar Amir Temur

me'moriy mujiza bo'lmog'i niyat etilgan Masjidi Jomeni o'z ko'zlari bilan ko'rishga oshiqadi. Va bu yerda kutilmagan voqea sodir bo'ladi: Temurning junbushga kelgan g'azabining chek-chegarasi yo'q edi. Bor mahoratini ishga solganiga qaramay, «buyurtmachi»ning qattik g'azabi me'morboshi ustiga yog'ildi, ham shu yerning o'zida uni jazoladilar - bedovning dumiga bog'lab, masjidning tosh xovlisida sudratdilar. Bu qadar shafqatsiz jazoning asosiy sababi nima?

Voqealar shohidi Ibn Arabshox Kuyidagi sababga ishora etadi. Temur yo'qligida uning zavjasi Saroymulixonim masjid qarshisida madrasa qurishga buyruq beradi: «Me'morlar va xandasa aktgi bu madrasaning joyi Temur qurishga buyurgan jome' muqobilida bo'lishini lozim topdilar» (Ibn Arabshox, 1992, I, 314 saxifa).

Sharafuddin Ali Yazdiy taxminan aynan shuni takrorlagan: «Saroymulxonim madrasasi Jome' (masjidi) qarshisida qurilgan edi».

Xush, tarixning jumbog'i nimada o'zi? Olimlar turli-tuman muloxazalarni o'rta ga tatstlaganlar. Gumon tutilgan madrasa o'rnida XX asrning 80-yillari oxirlarida o'tkazilgan arxeologik qazish ishlari muxim masalalar majmuini yechish imkonini berdi: darhaqiqat, masjld peshtoqi qarshisida Xonim madrasasi peshtoqi qoldiqlari mavjud. Biroq, ikki imoratning qarama-qarshi turishi odatdan tashqari bo'lib chikdi, bu esa imoratlarning uyg'un birligiga putur yetkazgan edi: madrasa peshtogi masjid peshtoqiga muvoziy joylashmagan, aksincha, yaqqol ko'rinib turadigan darajada qiyshiq ekan. Va bu hol, chamasi, hukmdor g'azabini quzg'agan asosiy sababga aylangan.

Sharafuddin Ali Yazdiy yanada anik ma'lumot keltiradi: «Sohibqiron o'zining ko'rsatmasiga ko'ra qurilgan binolardan biri, ammo u safarda ekanligida ko'tarilgan jome' masjidini borib ko'rganda, uning oliy himmati nazarida darhi ushoq va past ko'rinadi. Shuning uchun amri oliy sodir buldikim, masjidini buzsinar va qaytadan balandroq va kengroq qilib qursinar.



Registon ansambli. Samarqand

Xulosa

Amir Temur, ona Vatanini chet el bosqinchilardan ozod qilishdek muqaddas ishga ulkan hissa qo'shgan, Markaziy Osiy xalqlarining iqqisodiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotini yuksak pog'onaga ko'targan umumjahon tarixining buyuk siymosi, yetuk davlat arbobi, yengilmas lashkarboshi, ilmu fan va madaniyatning sahovatpesha qomiysi sanaladi. Shuningdek, Sohibqironning harbiy dahosi afkor dunyoni larzaga soldi. Buyuk Ipak Yo'lining ulkan kengliklarida buyuk saltanatni barpo etdi. Uning zamonida madaniyat, ilmu fan, me'morchilik, tasviriy san'at, musiqa, she'riyat beqiyos rivoj topdi.

Temuriylar sulolasi davrida O'rta Sharqning o'rta asr madaniyati va san'ati gullagan davrni boshidan kechirgan. Bu davrda ayniqsa me'morchilik ravnaq topdi.

O'zbekistan Respublikasi davlat mustaqilligining e'lon qilinishi sharofatidan chinakam erkinlikka erishish tufayli Amir Temur tarixan unutilish changallaridan o'z xalqi qalbiga, ona Vatani bag'riga qaytdi.

Amir Temurning boshqa barcha sohalarda qilgan buyuk xizmatlari qatoridan ning ulkan bunyodkorlik xizmatlari ham beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., "O'zbekiston", 1997.
2. I.Karimov. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., 1998 y.
3. Rahim Hasanov. Tasviriy san'at asoslari. Toshkent, 2009 yil.
4. N.Abdullaev. San'at tarixi.1-tom. Toshkent, 1986 yil.
5. Oydinov.N. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. — "Toshkent: O'qituvchi, 1997.
6. Miniatyura Maverannaxra: Albom. Avt. vstup.st. i sost. O.Galerkina. L., 1980.
7. Po'lat Zohidov. Temuriy davrining kakhshoni. "Sharq" nashriyoti. Toshkent-1996 yil.